

FE'LLARNING NASB HOLATI HAQIDA ARAB, RUS VA O'ZBEK TILSHUNOSLARINING YONDASHUVLARI

Rahmonov Begzod

Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Malumki, fleksiya turlanish va tuslanishni o'z ichiga oladi va u arab tilida e'rob deb nomlanadi. E'rob ism hamda fe'l so'z turulariga xos hodisa bo'lib, arab tilida mavjud harf so'z turkumida uchramaydi. Ushbu maqola arab tilidagi, asosan fe'llardagi e'rob (fleksiya) masalasiga arab, rus va o'zbek tilshunoslarining qarashlari haqida so'z yuritadi.

Tayanch so'z va iboralar: arab tilshunosligi, kelishik, mayl, fe'lar, muzori', ism.

Mustafo G'alayiniy hozirgi-kelasi zamon fe'llarining e'robi borasida aytadiki:

إذا انتظم الفعل المضارع في الجملة، فهو إما مرفوع أو منصوب أو مجزوم¹.

Agar fe'l gapda ishlatilsa u aniqlik, buyuruq-istak va shart maylida keladi.

Mustafo G'alayiniyning ushbu gapida kuchaytirma mayl keltirilmadi chunki u arab tilshunoslariga ko'ra mayl emas², lekin o'zbek va rus tilshunoslariga ko'ra esa mayldir³.

Shuningdek Mustafo G'alayiniyning ushbu fikridan ma'lum bo'ladigan narsa biz hozirgi-kelasi zamon fe'li deb nomlaydigan fe'l shakli arab tilshunoslariga ko'ra مضارع – *muzori'* deyiladi. Chunki hozirgi-kelasi zamon fe'li deyish arablarga ko'ra to'g'ri bo'lmaydi, sababi bu nom ushbu fe'lning barcha chegaralarini qamrab olmaydi, agar ushbu fe'l oldidan لم yuklamasi keltirilsa, u o'tgan zamonda bo'lishsizlikni ifoda etadi. Ma'lum bo'ladiki, hozirgi kelasi zamon fe'li deb nomlangan fe'l bir yuklama bilan shaklini o'zgartirmagan holda o'tgan zamoni bildiradi.

Nima uchun arab tilshunoslari ushbu fe'lni “muzori” feli deb nomlaganini Mustafo G'alayiniy o'z kitobida izohlaydi.

¹الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت، 2020، ص.331

²الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت، 2020، ص.332

³ Qarang: Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Наманган: Ибрат, 2009. Б.233

الفعل كله مبنيٌّ. ولا يعربُ منه إلا ما أشبهه الإسم، وهو الفعل المضارع الذي لم يتصل به نونا التوكيد ولا نون

النسوة⁴.

Fe'llarning barchasi mabniydir. Ulardan feqatgina ismga o'xshashlari mayllarda tuslanadi. U oxiriga ta'kid va muannaslik ن - lari qo'shilmagan muzori' fe'lidir. Chunki ushbu ikki narsa qo'shilsa, muzori' fe'li ham mabniy bo'lib qoladi. Bilindiki, arablar ushbu fe'lni bejizga muzori' feli deb nomlamagan ekanlar, chunki "muzori'" so'zi "o'xshash", "o'xshaydigan" ma'nolarini bildiradi. U ismga o'xshaganligi uchun shunday nomlagan ekanlar.

Abdurrohman Muhammad ibn abu Said al-Anbariy "Asroru-l-arobiyyati" asarida bunday deydi.

فإن قيل: فإذا كان الأصل في المضارع أن يكون مبنيًا، فلمْ حُمِلَ على الاسم في الإعراب؟ قيل: إنما حُمِلَ الفعل المضارع على الاسم في الإعراب؛ لأنه ضارع الاسم، ولهذا، سُمِّيَ مضارعاً؛ والمضارعة: المشابهة، ومنها سُمِّيَ الضِرْعُ ضِرْعاً؛ لأنه يشابه أخاه⁵.

Agar muzori' fe'lidagi asl uning mabniyligi bo'lsa, nima uchun e'robda ismga ergashtiriladi? deb aytilsa, unga javoban; Albatta muzori' fe'li e'robda faqat ismga ergashtiriladi, chunki u ismga o'xshaydi, shuning uchun u muzori' deb nomlandi. Muzori' degani المشابهة – "o'xshaydigan" deganidir. O'xshash degan ma'noni ifoda qilgani sababli ushbu fe'l muzori' deb nomlanidiki, u o'z birodariga (ismga) o'xshagani uchun.

Mustafo G'alayiniy esa ulardagi o'xshashlikni sabablarini keltirib aytadiki;

وهذا الشبه إنما يقع بينه وبين اسم الفاعل، وهو يكون بينهما من جهتي اللفظ والمعنى. أما من جهة اللفظ، فلأنهما متفقان في عدد الأحرف والحركات والسكنات، ف"يَكْتُبُ" على وزن (كاتب) و"مَكْرَمٌ" على وزن (يُكْرَم). وأما من جهة المعنى، فلأنَّ كلاً منهما يكون للحال والاستقبال، وباعتبار هذه المشابهة يُسمى هذا الفعل (مضارع)، أي مشابهاً، فإنَّ المضارعة معناها المشابهة، يقال: "هذا يضارع هذا" أي: يشابهه⁶.

Bu o'xshashlik faqatgina muzori' fe'li va uning aniq nisbat sifatdoshi o'rtasida talaffuz va ma'no jihatidan hosil bo'ladi. Uni talaffuz jihatidan olib qaraladigan bo'lsa, u ikkisi harflar, harakatlar va sukunlarning soni jihatidan bir xildir. يَكْتُبُ – "yozyapti" fe'li – (كَاتِب) – "yozuvchi" sifatdoshining vaznida, مُكْرَمٌ – "Hurmat qiluvchi" sifatdosh esa,

⁴الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت، 2020، ص.329

⁵الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمن محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الأسرار العربية. – بيروت، 1999، ص.49

⁶الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. – بيروت، 2020، ص.329

(يُكْرَمُ) – “Hurmat qilayapti” fe’lining vaznidadir. Ammo ma’no jihatidan qaralsa, u ikkisi hozirgi-kelasi zamon uchun bo’ladi. shu ikki o’xshashlik e’tiboridan bu fe’l muzori’, ya’ni o’xshaydigan deb nomlanadi. Muzori’ “o’xshaydigan” degan ma’nodadir. Aytildiki، هذا يشابه هذا – “Bu bunga o’xshaydi” deb.

Arab tilshunolari muzori’ fe’lining ismga o’xshashligi haqida kitoblarida Mustafõ G’alayiniy kabi o’z vajhlarini keltirganalar. Al-Murodiyning “Tavdihu-l-maqosid”, “Sharhu-t-tas’hil” va as-Sobbanning al-Ashmuniyning ibn Molikning “Alfiyatu ibni Malik” asriga yozgan sharhiga bitgan “Hashiyatu-s-Sobban” asarida Mustafõ G’alayiniyning fikralirga o’xshash fikrlar keltirilgan⁷. Shuningdek Abdurrohman Muhammad ibn abu Said al-Anbariy “Asroru-l-arobiyati” asarida uning ismga o’xshashligida beshta vajhni keltirgan. Birinchisi: Muzori’ fe’li ism kabi umumni ifoda etadi. Masalan: يَقُومُ – “turyapti” yoki “turadi” deyilsa، hozirgi va kelasi zamon o’rtasida umumiy bo’ldi. Ammo unga س va سوف yuklamalari qo’shilsa، u kelasi zamonga xoslanib qoladi. Ismda ham shunga o’xshash holat mavjud. Masalan: رَجُلٌ – “kishi” deyilsa، undan har qanday erkan tushinladi. Ammo أَلْ anqlik artikli qo’shilsa، undan muayyan bir erkak tushiniladi.

Ikkinchisi: ل yuklamasi ismga qo’shilgani kabi muzori’ fe’liga ham qo’shiladi. Masalan: إِنَّ زَيْدًا لِقَائِمٌ – “Albatta Zayd turibt” deya olganimiz kabi إِنَّ زَيْدًا لِيَقُومُ – “Albatta Zayd turuvchidir” ayta olamiz. Ammo o’tgan boshqa fe’llar bundan mustasno.

Uchinchisi: Bu fe’l hozirgi va kelasi zamoni jamlaydi، ism ham ikki ma’noni jamlagani kabi. Masalan: عَيْنٌ – “ko’z” so’zi jonzotlarning ko’rish a’zolarini bildirishi bilan birga، buloq degan ma’noni ham bildiradi.

To’rtinchisi: U ism kabi gapda sifatlovchi aniqlovchi bo’lib kela oladi. Masalan: مررتُ برجلٍ يضربُ – “Urayotgan kishi oldidan o’tdim”.

Beshinchisi: U harakatlarida va sukuni bilan o’zining aniq nisbat sifatdoshiga o’xshaydi⁸.

Shuningdek ushbu fikrlar ham mavjud: “Muzori’ fe’li ikki narsada، ya’ni ma’no jihatidan hozirgi va kelasi zamoni ifoda qilishda umumiydir، huddi رَجُلٌ – “kishi” degan

⁷ Qarang:73ص. 2019. بيروت، – بيروت، 2019. ص73. أبو محمد عبد الله بن يوسف بن أحمد جمال الدين ابن هشام الأنصاري. شذور الذهب في معرفة كلام العرب. – بيروت، 1999، ص49،
⁸ الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمن محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الأسرار العربية. – بيروت، 1999، ص49،

ism ostida ham Zaydni, ham Amrni tushunganimiz kabi. Agar سيفعل – “qiladi” yoki سوف يفعل – “qiladi” deyilsa, يفعل fe’li faqat kelasi zammoni bildiradi, huddiki, ismga أل anqlik artikli qo’shilsa, ma’lum kishi nazarda tutilayotgani kabi. Yana ism qaratqich kelishigining ko’rsatkichlari bilan xoslangani kabi fe’l ham shart maylining ko’rsatkichlari bilan xoslanadi⁹”.

Mahmud Zamaxshariy ham “Unmuzaj” asarida muzori’ fe’li haqida yozadi.

ويشترك في المضارع الحاضر والمستقبل، إلا إذا دخله اللام أو سوف¹⁰.

Muzori’ fe’li faqat unga ل va yuklamari qo’shilmasa, hozirgi va kelasi zamonlarni o’z ichiga oladi.

Ushbu asarning sharhlovchisi Muhammad ibn Abdulg’oniy al-Ardubiliy ushbu Mahmud Zamaxshariyning aytganlarini sharhlaydi.

ويشترك في المضارع الحاضر والمستقبل؛ أي: يصلح كليهما؛ نحو: يفعل زيدٌ، فإنه يحتمل أن يفعل الآن أو غداً إلا إذا دخل المضارع لام الإبتداء؛ فإنه يختص بالحاضر؛ نحو: زيد ليقوم؛ أي: الآن، أو دخله سوف، فإنه حينئذٍ يختص بالمستقبل؛ نحو: زيدٌ سوف يقوم، وكذا إذا دخله السين؛ نحو: زيد سيقوم. وهذا المعنى؛ أعني: العموم والخصوص هو الذي يضارع المضارع؛ أي: الإسم بسببهما، فإن الإسم يحتمل العموم والخصوص؛ كرجل والرجل¹¹.

Muzori’ fe’li hozirgi va kelasi zamonlarni o’z ichiga oladi, ya’ni ikkisinin ham tushinilishi to’g’ri bo’laveradi. Masalan: “Zayd qilyapti, qiladi”. Chunki يفعل fe’lining ma’nosini ikki xil tushinish mumkin, ya’ni ish harakati hozir sodir bo’lyapti yoki ertaga sodir bo’ladi, deb talqin qilish joizdir. Ammo muzori’ fe’liga ل yuklamasi qo’shilsa, muzori’ fe’li hozirgi zamonga xoslanadi. Masalan: “Zayd turyapti”. Agar yuklamasi bilan kelsa, muzori’ fe’li kelasi zamonga xoslanib qoladi. Masalan: “Zayd turadi”. Shuningdek س yuklamasi qo’shilsa ham shunday. Masalan: “Zayd turadi”. Ushbu ma’no (Mahmud Zamaxshariyning yuqirdagi fikrlari), ya’ni umum va xoslik bu, muzori’ aynan shu ikki sabab bilan ismga o’xshashini anglatadi. Chunki ism ham umum va hoslikni anglatadi. Masalan: رجل – “qaysidir kishi” va الرجل – “muayyan bir kishi”.

⁹ Qarang: 40، ص، 1996، بيروت، – الجزء الأول. – الأصول في النحو – البغدادي. أبو بكر محمد بن سهل بن السراج النحوي البغدادي.

¹⁰ جمال الدين محمد بن عبد الغني الأردبيلي. شرح الأتموزج. – بيروت، 2022، ص، 384

¹¹ جمال الدين محمد بن عبد الغني الأردبيلي. شرح الأتموزج. – بيروت، 2022، ص، 385

Bu borada arab tilshunoslarining fikrlari biri-birinikidan farqlidir. Olimlarning aynan shu keltirgan jihatlari bilan rof' va nasb degan iboralar fe'lga nisbatan ham qo'llaniladi. Shuningdek ularning ko'rsatkichlari ham ism va muzori' fe'lida umumiydir, boshqa so'zlar esa, ya'ni mabniy ism, fe'l, predlog va yuklamalar bunday jihatlardan holi bo'libgina qolmay, turlanmaydi ham, tuslanmaydi ham.

Lekin muzori' fe'lga ta'kid maylini ifodalovchi va muannas ko'plikni bildiruvchi ن qo'shimchalari qo'shilsa, u albatta o'z asliga mabniylikka qaytadi, va tuslanmaydi, ismga o'xshashliga ham yo'qoladi¹².

Mustafo G'alayiniy fe'lni nasb holatida kelish haqida bunday deydi.

يُنصَبُ المضارع إذا سبقته إحدى النواصب¹³، ونواصب المضارع أربعة أحرف، وهي أن ولن وإذن وكي¹⁴.

Muzori' fe'li fe'lni nasb holatida kelishni talab qiladigan yuklamalardan biri bilan kelsa, u nasb holatida bo'ladi. Ular to'rt va إذن, لن, أن yuklamalaridir.

Ibn Hishom esa quyidagi fikrlarni aytadi.

هذا النوع المكمل للمنصوبات الخمسة عشر، وهو الفعل المضارع التالي ناصباً، والنواصب أربعة: لن وكي وإذن وأن¹⁵.

Ushbu turkum o'n beshta tushim kelishigida keluvchi ismlarni to'liqlaydigan turkumdir. U nasb holatida keluvchi muzori' fe'lidir. Nasb holatida kelishini talb qiladigan yuklamalar esa to'rttadir. Ular va إذن, لن, أن yuklamalaridir.

Demak ibn Hishomga ko'ra fe'lning nasb holati tushim kelishigida keladigan ismlarni to'ldiradigan holat ekan. Bundan anglanadigan narsa, bu ulardagi kelishik va mayllarning ko'rsatkichlari bir xil bo'lishidir. Ismlardagi tushim kelishigining asliy ko'rsatkichi fatha harakati bo'lsa, fe'llarda ham u istak maylining asliy ko'rsatkichidir.

Abdurrohman Muhammad ibn abu Said al-Anbariy muzori' fe'lining nasb holatida kelishiga majbur etadigan yukalamar haqida quyidagilarni aytgan.

إن قال قائل : لمَّ وجب أن تعمل "أن ، ولن ، وإذن، وكي" النصب؟ قيل: إنما وجب أن تعمل لاختصاصها بالفعل، ووجب أن يكون عملها النصب؛ لأنَّ "أن" الخفيفة تشبه "أن" الثقيلة، و "أن" الثقيلة تنصب الاسم، فكذلك "أن" هذه أن يجب تنصب الفعل، وحُمِلت لَنَ وإذن وكي على "أن"، وإنَّما حُمِلت عليها؛ لأنها تشبهها ووجه الشبه

¹² Qarang:329،ص،2020، بيروت، - جامع الدروس العربية. الشيخ مصطفى الغلاييني.

¹³ الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - بيروت، 2020، ص،333

¹⁴ الشيخ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - بيروت، 2020، ص،334

¹⁵ أبو محمد عبد الله بن يوسف بن أحمد جمال الدين ابن هشام الأنصاري. شذور الذهب في معرفة كلام العرب. - بيروت، 2019، ص506

بينهما أن "أن" الخفيفة تخلص الفعل المضارع للاستقبال، وهذه الحروف تخلص الفعل المضارع للاستقبال، فلما اشتركا في هذا المعنى حُمِلت عليها¹⁶.

Agar bir kishi: "Nima uchun أن، إن، va yuklamalari fe'lni nasb holatida kelishini shart qiladi" deb aytsa, unga javoban aytiladi, "chunki ular fe'lgagina xos yuklamalardir, ular fe'lga qo'shilsa, fe'l nasb holatida kelishi shart bo'ladi. Chunki talaffuzga yengil tashdidsiz أن yuklamasi egaga ta'sir etuvchi tashdidli أن yuklamasiga o'xshaydi. Tashdidli أن yuklamasi egani nasb holatida kelishini talab qiladi, shuningdek tashdidsiz أن yuklamasi ham fe'lni nasb holatida kelishini shart qiladi. إن، va yuklamalari esa tashdidsiz "أن" yuklamasiga ergashtiriladi, chunki ular tashdidsiz أن yuklamasiga o'xshaydirlar. Ular o'rtasidagi o'xshashlik tashdidsiz أن yuklamasi muzori' fe'lini kelasi zamonga xoslab qo'yadi. Qolgan yuklamalar ham uni kelasi zamonga xoslaydilar.

Abdurrohman Muhammad ibn abu Said al-Anbaryning yuqoridagi vajhlaridan nasb yuklamalari muzori' fe'lini kelasi zamonga xoslashi tushiniladi. Bunga qo'shimcha o'laroq Fozil as-Samirroiyning fikrlar dalil bo'ladi.

جاء في (الهمع): "ومن شأن الناصب أن يخلص المضارع إلى الاستقبال". وجاء فيه: "النواصب من مخلصات المضارع للاستقبال". وجاء في (المقتضب): "أن حروف النصب إنما معناها ما لم يقع. وقال ابن الناظم: "فلو كان المضارع بمعنى الحال وجب رفعه؛ لأن فعل الحال لا يكون إلا مرفوعاً"¹⁷.

"Al-Ham" kitobida *"Nasb yuklamalarining e'tiborli jihatidan biri muzori' fe'lini kelasi zamonga xoslashidir"* va *"Nasb yuklamalari muzori' fe'lini kelasi zamonga xoslovchilardandir"*, deya ushbu fikrlar kelgan". Shuningdek *"al-Muqtadob"* asarida ham *"Albatta nasb yuklamalarining ma'nosi hali paydo bo'lmagan ish harakati bo'lishidir"*, deya kelgan. Ibn Nozim *"Agar muzori' fe'li hozirgi zamoni bildirsa, u rof' holatida bo'lishi shart, chunki hozirgi zamon faqat fe'lning rof' holatidagina bo'ladi"*, degan.

Ushbu fikrlardan barcha rof' holatida keladigan fe'llar hozirgi zamoni, barcha nasb holatida keladigan fe'llar esa kelasi zamoni anglatar ekan degan tushunchadan

¹⁶الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمن محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الأسرار العربية. – بيروت، 1999، ص.233
¹⁷الدكتور فاضل صالح السامرائي. معاني النحو – الجزء الثالث. – بيروت، 2020، ص.392

yiroqdamiz, chunki rofʻ holatidagi feʻl bazan kelasi zamonni va nasb holatidagi feʻl esa hozirgi zamonni anglatishi mumkin.

Abdurrohman Muhammad ibn abu Said al-Anbariy “Asroru-l-arobiyyati” asarida Xolil ibn Ahmaddan bir rivoyatni keltirib deydi.

وَيُحَكِّي عن الخليل بن أحمد أنه قال : لا يُنصب شيء من الأفعال إلا بـ "أن" مظهرة أو مقدره، والأكثر على خلافه¹⁸.

Xolil ibn Ahmaddan rivoyat qilinadiki, “Fe’llar faqatgina أَنْ yuklamasi bilangina nasb holatida keltiriladi. Lekin ko’pchilik olimlar aks fikrdalar.

Ibn Aqil esa ibn Molikning “Alfiyatu ibn Molik” nomli nazmiy asariga yozgan sharhida aytadi.

ينصب المضارع إذا صحَّبه حرفٌ ناصبٌ، وهو: "لن" أو "كي" أو "أن" أو "إذن"، نحو: "لن أضرب، وجئتُ كي أتعلِّم، وأريدُ أن تقوم، وإذن أكرمك – في جواب مَنْ قال لك : أتيتك"¹⁹.

Muzori’ fe’lini nasb holatida kelishini shart qiluvchi yuklamalardan biri birga kelsa, u nasb holatida bo’ladi. Ular لن, كي, va إذن yuklamalaridir. Masalan: “Hech urmayman” – لن أضرب – “Turishingni istayman” – أريدُ أن تقوم, “O’rgatish uchun keldim” – جئتُ كي أتعلِّم, “Sening huzuringa kelaman” degan kishiga javob tarzida aytiladi إذن أكرمك – “Unday bo’lsa, seni mehmon qilaman” deb.

Rus olimlaridan Grande fe’llarning ushbu holati haqida quydagilarni keltirgan.

Сослагательное наклонение образуется из изъявительного путем замены окончания *-u* на *-a* и опущения конечных *-na* или *-ni*, за исключением форм множественного числа женского рода. В формах с опущенным «нуном» после буквы «вав» пишется «алиф».

Лицо	Род	Ед. ч.	Двойство. ч.	Мн. ч.
1-е	-	أَكْتُبُ	-	نَكْتُبُ
2-е	Муж.	تَكْتُبُ	تَكْتُبَا	تَكْتُبُوا
	Жен.	تَكْتُبِي		تَكْتُبِينَ
3-е	Муж.	يَكْتُبُ	يَكْتُبَا	يَكْتُبُوا

¹⁸الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمان محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الأسرار العربية. – بيروت، 1999، ص.233
¹⁹بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان بن عبد الله بن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك – الجزء الرابع. – بيروت، 2022، ص.4

	Жен.	تَكْتَبُ	تَكْتُبَا	يَكْتُبْنَ
--	------	----------	-----------	------------

Глагол в имперфекте сослагательного наклонения употребляется в следующих случаях. 1) После союза أَنْ; 2) После كَي; 3) После союза لَ; 4) После комбинаций перечисленных союзов, а также в комбинации с отрицаниями (لَأَنْ, لَكَي) для того, чтобы, أَلَا, لَيْلَا (вместо لَا أَنْ), كَيْلَا (вместо لَا كَي), لَكَيْلَا (вместо لَا لَكَي); 5) после отрицания لَنْ; 6) После союза حَتَّى; 7) После союза فَ; 8) После союза وَ; 9) После союза أَوْ; 10) После частицы إِذَا (или إِذَنْ)²⁰.

Istak mayli aniqlik maylning oxiridagi qo'shimchasi –u ni –a ga almashtirish orqali va oxiridagi harflari –na yoki –ni ni tushirish orqali bo'ladi, lekin muannas ko'plik shaklidagilar bundan mustasno. ن tushiriladigan shakllarda و dan keyin ʻ yoziladi.

shaxs	jins	birlik	ikkilik	koplik
1-chi	-	اَكْتُبُ	-	تَكْتُبُ
2-chi	muzakkar	تَكْتُبُ	تَكْتُبَا	تَكْتُبُوا
	muannas	تَكْتُبِي		تَكْتُبْنَ
3-chi	muzakkar	يَكْتُبُ	يَكْتُبَا	يَكْتُبُوا
	muannas	تَكْتُبُ	تَكْتُبَا	يَكْتُبْنَ

Fe'l istak maylida quyidagi o'rinlarda qo'llaniladi. 1) أَنْ yuklamasidan keyin; 2) كَي yuklamsidan keyin; 3) لَ yuklamasidan keyin; 4) yuqorida keltirilgan yuklamalarning shuningdek bo'lishsizlik yuklamalarining qo'shilishi orqali hosil bo'lgan birikmalardan keyin. Masalan: أَلَا, لَيْلَا, birikmalari (لَأَنْ o'rniga), كَيْلَا birikmasi (لَا كَي o'rniga), لَكَيْلَا birikmasi (لَا لَكَي o'rniga); 5) لَنْ bo'lishsizlik yuklamasidan keyin; 6) حَتَّى yuklamasidan keyin; 7) فَ yuklamasidan keyin; 8) وَ yuklamasidan keyin; 9) أَوْ yuklamasidan keyin; 10) إِذَا (yoki إِذَنْ) yuklamalaridan keyin kelsa.

O'zbek tilshunoslaridan Ne'matullo Ibrohimov va Muhammad Yusupovlar o'zlarining “Arab tili grammatikasi 1” nomli kitoblarida quyidagilarni aytganlar.

²⁰ Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М.: Восточная литература, 1998. –С.161.

Fe'llarning istak mayli hozirgi kelasi zamon shaklidadan hosil bo'ladi va u shaxs-sonda quyidagicha tuslanadi:

shaxs	jins	birlik	ikkilik	koplik
III	mz	يَفْعَلُ	يَفْعَلَا	يَفْعَلُوا
	mn	تَفْعَلُ	تَفْعَلَا	يَفْعَلُنَ
II	mz	تَفْعَلُ	تَفْعَلَا	تَفْعَلُوا
	mn	تَفْعَلِي		تَفْعَلُنَ
I	mz	أَفْعَلُ		نَفْعَلُ
	mn			

Istak mayli majhul nisbatdagi fe'llardan ham hosil bo'lishi mumkin va u ham umumiy qoida asosida tuslanadi²¹:

shaxs	jins	birlik	ikkilik	koplik
III	mz	يُفْعَلُ	يُفْعَلَا	يُفْعَلُوا
	mn	تُفْعَلُ	تُفْعَلَا	يُفْعَلُنَ
II	mz	تُفْعَلُ	تُفْعَلَا	تُفْعَلُوا
	mn	تُفْعَلِي		تُفْعَلُنَ
I	mz	أُفْعَلُ		نُفْعَلُ
	mn			

Ushbu olimlar ham yuqorida o'tgan yuklamalarning ba'zilarini keltirib, fe'llar ushbu yuklamalardan keyin istak maylida kelishini aytadilar²². Rus va o'zbek tilshunos olimlariga ko'ra fe'llar nasb holatida deb emas, balki istak maylida deb aytiladi, chunki rus va o'zbek tillarining turlanish hamda tuslanish strukturasi arab tilining strukturasi dan tubdan farq qiladi. Yuqorida keltirganimizdek arab tilida kelishik va mayl ko'rsatkichlari bir-xilligi bois arablar ularni shunga ko'ra umumiy nom bilan rof' va nasb deb nomlaydilar. Rus va o'zbek tilida buning aksi, ya'ni kelishik va mayllar ko'rsatkichlari

²¹ Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Наманган: Ибрат, 2009. Б.233

²² Qa'ang: Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Наманган: Ибрат, 2009. Б.233

bir-biridan farq qiladi, shuning uchun ushbu tildagi arab tilining o'rganuvchilariga oson bo'lishi uchun mazkur tillarning atamalari bilan nomlashga ehtiyoj sezilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ҳифний Носиф (таржимон А. Ҳикматов). Ад-дурису нахвия. –Т.: Ҳилол нашр, 2022. 398 б.
2. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Наманган: Ибрат, 2009. – 563 б.
3. Гранде Б.М. Курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении. –М.: Восточная литература, 1998. –592 С.

1. الشيخ مصطفى الغلاييني، جامع الدروس العربية، بيروت، 2020. ص. 804
2. حفنى ناصف، محمد دياب، مصطفى طوم، محمد صالح. الدروس النحوية. دار العقيد. مصر، 2007. ص. 488
3. بهاء الدين عبد الله بن عبد الرحمان بن عبد الله بن عقيل. شرح ابن عقيل على ألفية ابن مالك – الجزء الرابع. – بيروت، 2022. ص. 304
4. الدكتور فاضل صالح السامرائي. معاني النحو – الجزء الثالث. – بيروت، 2020. ص. 533
5. الشيخ الإمام كمال الدين أبي البركات عبد الرحمان محمد بن أبي سعيد الأنباري النحوي. الأسرار العربية. – بيروت، 1999. ص. 334
6. أبو محمد عبد الله بن يوسف بن أحمد جمال الدين ابن هشام الأنصاري. شذور الذهب في معرفة كلام العرب. – بيروت، 2019. ص. 792
7. أبو بكر محمد بن سهل بن السراج النحوي البغدادي. الأصول في النحو – الجزء الأول. – بيروت، 1996. ص. 440
8. جمال الدين محمد بن عبد الغني الأردبيلي. شرح الأنموذج. – بيروت، 2022. ص.